

G'ARBIY TURK XOQONLIGINING HARBIY SAN'ATI

Bektoshev G'iyos Saxriddin o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'arbiy Turk xoqonligining harbiy yurishlari va yurishlari davomida qo'llagan harbiy san'ati haqida batafsil ma'lumotlar taxlil etilgan. Maqoladagi ma'lumotlar tarixiy manbalar asosida shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Turk xoqonligi, Lev Gumilev, G'aybulla Babayarov, Xitoy yilnomalari, harbiy yurishlar, o'nlik tizim, harbiy istehkomlar.

Абстрактный: В данной статье представлены подробные сведения о военном искусстве, используемом Западно-Тюркским каганатом во время его военных походов и походов. Информация в статье основана на исторических источниках.

Ключевые слова: Турецкое ханство, Лев Гумилев, Гайбулла Бабаяров, китайские хроники, военные походы, десятичная система, военные укрепления.

Abstract: This article provides detailed information about the military art used by the Western Turkic Khaganate during its military campaigns and campaigns. The information in the article is based on historical sources.

Key words: Turkish khanate, Lev Gumilev, Gaybulla Babayarov, Chinese chronicles, military campaigns, decimal system, military fortifications.

KIRISH

Manbalar va adabiyotlarda Turk xoqonligining o'z vaqtida dunyodagi eng yirik davlatlardan biriga aylanishi asosida uning harbiy jihatdan boshqalarga nisbatan ancha ustunlikka ega bo'lganligi aytib o'tilgan. Xoqonlikning harbiy san'ati ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan bo'lib, bu borada ko'plab fikrlar bildirilgan. Jumladan, L. Gumilevning ta'kidlashicha, Turk xoqonligi zafarlari va dunyoning yarimiga egalik qilishi tasodifiy xodisa emas ekanligini, ular ko'chmanchilik saviyasidan ancha yuqori bo'lgan qo'shin tuzganligini keltirib o'tgan. G'arbiy Turk xoqonligining ko'plab janglar olib borganiga doir ancha-muncha ma'lumotlar saqlanib qolgan bo'lsa-da, janglarda aynan qanday taktikalar qo'llaganilganiga doir batafsil ma'lumotlar uchramaydi. Shunga qaramay ayrim ma'lumotlar asosida xoqonlik tomonidan muayyan taktikalar amalga oshirilganini tasavvur qilish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. G'aybulla Babayarov o'zining "G'arbiy Turk xoqonligi" asarida xoqonlikdagi harbiy ish va mudofaa tizimi haqida ancha keng va batasil ma'lumotlar keltirib o'tishi bilan boshqa manbalardan ajralib turadi. Shuningdek, Lev Gumilevning "Qadimgi Turklar" asarida ham harbiy yurishlari haqida qisqacha ma'lumotlar berilib o'tilgan. Shu bilan birga, Nasimxon Rahmonning "Turk xoqonligi", Karim Shoniyozovning "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni", Bahodir Eshovning "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi" asarlarida, Azimxo'ja Otaxo'jayevning "Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo

sivilizatsiyasida Turk-So'g'd munosabatlari" nomli monografiyasida ham ancha batafsil ma'lumotlar keltirilib, yoritib o'tilgan.

Muhokama va natijalar. G'aybulla Babayarovning "G'arbiy Turk xoqonligi" asarida keltirishicha, Turk xoqonligining o'z vaqtida dunyodagi eng yirik davlatlaridan biriga aylanishi asosida uning harbiy jihatdan boshqalariga nisbatan ancha ustunlikka ega bo'lishligi omili yotadi. Xoqonlikning bu xususiyati ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan bo'lib, bu borada ko'plab fikrlar bildirilgan. Turk xoqonligi zafarlari va dunyoning yarmiga egalik qilishi tasodifiy hodisa emas edi. Ular ko'chmanchilik saviyasidan ancha yuqori bo'lgan shunday bir qo'shin va idora tizimi yaratdilar, shunga munosib ravishda g'alabalarga ham erishdi, deb aytish mumkin. Xoqonlik qo'shinining qurol-yaroqlari ancha mustahkam bo'lganini tasdiqlaydigan malumotlar nafaqat xoqonlikning markaziy hududlari bo'lmish mazkur joylardan, balki xoqonlik tarkibida bo'lgan o'troq vohalardan topilgan arxeologik materiallarda ham o'z tasdig'ini topgan. G'arbiy Turk xoqonligida qo'shin o'nlik tizimdan tashkil topgan edi. Buning misolini qadimgi turk bitiktoshlari, xitoy yilnomalari va arab manbalarida keltirilgan malumotlardan topish mumkin. Jumladan, bitiktoshlarda uchraydigan o'n o'q atamasining o'ziyoq har biri 10 mingdan jangchi yetishtirib beruvchi 10 ta turk qabilasi ma'nosida bo'lgan.[1]

Qadimdan oq turklarning qo'shini yengil qurollangan otlik kamondozlardan iborat bo'lgan, Bunday qo'shin tarqoq saf taktikasini qo'llagan. Aniqrog'i, dushmanga ma'lum masofada turib birdaniga o'q yog'dirishgan Keyinchalik ham turk qo'shinlarining asosini o'q va yoy bilan qurollangan yengil otliklar tashkil etgan bo'lib, ular tarqoq saf tortgan holda harakat qilishgan. Yozma manbalarda turklarning otda turib kamondan mohirlik bilan o'q uzishlari alohida ta'kidlagan.

Arab, fors, yunon, slavyan va boshqa tillardagi manbalarda xam turklarning jangovar ko'shini odatda otliqlardan iborat bo'lganligi qayd etilgan. Xoqonlik qo'shini soni xususida manbalarda turlicha ma'lumotlar uchraydi. Chunonchi, xitoy yilnomalarida 500, 2000, 10000, 100000, 150000, 400000, 1 000000 gacha bo'lgan qo'shin otryadlari haqida ma'lumotlar uchraydi.

Turk xoqonlaridan biri haqida xitoy yilnomachilari shunday yozadilar: "millionlab qo'shinga ega, qadimda ham hech qachon shimoliy ko'chmanchilar bunchalik kuchaymagan edi" Turklarning sevimli qurollari: kamon, nayza, qilich bo'lgan. Chavandoz va ot qurollari ko'pincha ishlatilgan. Ashina qabilasining bannerlarida bo'ring boshi tilla bilan tikilgan tasvirlangan. Jangdagi o'lim inson uchun eng yaxshi o'lim hisoblangan.. [2]

Nasimxon Rahmonning "Turk xoqonligi" asarida mahoratli jangchilarning jangovarlik qobiliyati o'z davri uchun yetarlicha darajada yuqori bo'lganligi aytib o'tilgan. Ular deyarli tinimsiz jangu jadallar olib borar, butun atrofida dushmanlar o'rab olgan bo'lishlariga qaramay, turli qabilalarning qarshiliklarini qurol kuchi bilan bartaraf etib, Uzoq Sharq va O'rta Osiyogacha bo'lgan uzoq masofali yurishlarni amalga oshirar edilar. Xitoy yilnomalarida ham qayd etilishicha, "turli davlatlarning hammasi unga (Turk xoqonligiga) bo'ysungan. Kamondozlari bir milliondan ortiqroq edi. Shimoliy ajnabiylar (ya'ni xitoylik bo'lmaganlar) hech qachon bunday kuch qudratga ega bo'lishmagan edi. Xoqonlikda

mavjud an'analarga ko'ra, hukmdorlar qo'shin jangovarligini oshirish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirganlar. Jumladan, VII asrning yarmiga mansub xitoy yilnomalarida qayd etilishicha, hukmdorlar "doimiy ravishda jang qilish, qilichbozlik va o'q-yoy otish mashqlarini amalga oshirar, ovga chiqardilar".[3]

555-yilda Eftalitlar va Turk xoqonligi orasidagi chegara Sirdaryo havzalari va Toshkent vohasi hisoblanib, manbalarga ko'ra, VI asrning 60-yillarida Istami eftalitlarga qarashli hududlardan dastlab Choch vohasini qo'lga kiritgan edi. Aynan shu voqealar bilan bog'liq holda Jabg'ukat dastlab harbiy maqsadlar (qo'shin saqlash, qo'shinning harbiy tayyorgarligi va h.k.) uchun mo'ljallab qurilgan bo'lishi ham mumkin. Istami boshchiligidagi turklarning eftalitlarga qarshi keyingi yurishlarida Jabg'ukat harbiy baza, istehkom vazifasini o'tagan bo'lishi mumkin.

Demak, yuqorida ko'rib chiqilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, xoqonlik o'z davrida harbiy jihatdan ilg'or bo'lgan. O'nlik tizimga asoslangan muntazam qo'shin, ya'ni asosan har biri 10 ming nafar jangchi bilan ta'minlovchi "o'n o'q" tuzilmasi doimiy ravishda hozir bo'lgan 100 minglik qo'shin mavjud bo'lgan, xoqonlik uning ko'p sonli, intizomli va tezkor o'tliq qo'shinga ega bo'lganligi, o'z davrining qudratli davlatlaridan biriga aylanishiga aylanishiga imkon bergan.[4]

Turk xoqonligining harbiy san'ati uchun Markaziy Osiyo chorvadorlari an'anasi kabi ot bilan jang qilish usuli xos edi. Hujumni avval kamondan ma'lum masofada turib o'q uzish bilan boshlab berishgan. Bu vazifani asosan o'q-yoy bilan qurollangan yengil o'tliq otryadlar bajarishgan. Jangning hal qiluvchi pallasida esa urushga og'ir qurolli o'tliqlar kirgan. Ular dushmanga zich safga tizilgan xolda nayzalar bilan hujum qilishgan. Shu tariqa ular dushmanni yaqin masofada turib jang qilishga majbur qilishgan. Bunday hujum esa foyda berib, dushman bardosh berolmay, ko'p o'tmay chekingan. Zirhli o'tliqlar esa hujumda davom etib, dushmanni batamom yakson qilish bilan jangni yakunlashgan.

Diqqatga sazovor jihati shuki, xoqonlik qo'shinlari dushmanni oxirigacha ta'qib qilib borib, uni butunlay yakson qilmaganlaricha tinchishmas edi. Masalan, juanlarni ular to Yevropaga qadar ta'qib qilib borishgan. Yordamchi piyoda otryadlarning jangdagi ishtiroki esa aralash jang usulidan foydalanilganda qo'l kelgan. Ya'ni, dushmanning hujumini o'q-yoy bilan qarshi olishda ularning nafi tekkan.

Vaziyat taqozo etganida ba'zi turk otryadlari dushmanga turli tarafdin hujum qilgan holda mustaqil harakat qilishgan. Vizantiyalik harbiy mutaxassis Mavrikiy (VII asr birinchi yarmi) o'zining "Strategikon" nomli asarida turklarning taktik usullarini shunday tasvirlaydi: «Endi turklar va avarlar ham jangovar tartibda joylashishadi... Ular jangovar qo'shinni rimliklar (vizantiyaliklar nazarda tutilmoqda) va forslarga o'xshab bir chiziq bo'ylab joylashtirmaydi" deydi. [5]

Xulosa qilib aytganda, Turk xoqonligining harbiy san'atining ancha yuksak bo'lishi, uning keng hududlarni egallashga olib keldi. Umuman olganda, Turk xoqonligining harbiy san'ati hududlarining kengayishida va uzoq muddat davomida hududlarini himoya qilishda muhim rol o'ynagan. Shu bilan birga, xoqonlik aholisi asosan chorvador bo'lsada, shu aholidan kuchli qo'shin tuza olgan. Turk xoqonligining butun siyosiy tarixi harbiy yurishlar va qabilalararo urushlar bilan to'la bo'lishiga qaramay, u Jung'oriyadan to Qora

dengizgacha bo‘lgan ulkan hududda turkiy qabilalarning o‘zaro uyushishiga zamin yaratdi va qator turkiy tili xalqlar etnomadaniy muhitining shakllanishini ta’minlaydi. Xoqonlikning kuchli harbiy tashkiloti esa Xitoy va Eronning tajovuzkorona niyatlariga to‘sqinlik qilishi bilan birga, VIII asrdagi arab xalifaligi bosqiniga ham qattiq qarshilik ko‘rsata oldi. Turk xoqonligining harbiy yurishlari ularning harbiy qudrati, strategik ahamiyati va siyosiy mahoratini namoyon etgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘aybulla Babayarovning “G‘arbiy Turk xoqonligi” Yangi nashr-Toshkent 2018. 301-305 betlar
2. https://ru.wikipedia.org/w/index.php.title=Тюркский_каганат&
3. Nasimxon Rahmon “Turk xoqonligi” Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti- Toshkent 1993. 43-46 betlar
4. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan -Toshkent Sharq, 2012. 44-45 betlar
5. Lev Gumilev “Qadimgi Turklar” Fan nashriyoti-Toshkent 2007. 230 bet